

ABDULLA ORIPOV ASARLARIDA METAFORANING QO‘LLANISHI

Sarvinoz Yo‘ldosheva,

Alfraganus Universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

I-

bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada metafora hodisasining lingvistik mohiyati, uning shakllanish jarayoni va badiiy nutqdagi o‘rni tahlil qilingan. Unda so‘z ma‘nosining rivojlanishi, to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nolar o‘rtasidagi munosabatlar hamda metaforaning ma‘no ko‘chish usuli sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda metafora tushunchasining tarixiy ildizlari, xususan, Aristotelning “Poetika” asaridagi qarashlari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, metaforaning lingvistik, grammatik va semantik jihatlari badiiy matnlar misolida tahlil qilinib, uning obrazlilik, ta’sirchanlik va estetik mazmun yaratishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada metaforaning nafaqat stilistik vosita, balki tafakkur va til munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: metafora, ko‘chma ma‘no, semantika, lingvistik metafora, grammatik metafora, badiiy nutq, obrazlilik, Aristotel, “Poetika”, kognitiv tilshunoslik, so‘z ma‘nosi, ma‘no ko‘chishi, stilistika.

So‘z davlat paydo bo‘lgandan buyon bir predmet, harakat, holat yoki miqdor haqidagi tushunchalarni ifodalash uchun paydo bo‘ldi. Keyinchalik til taraqqiyoti natijasida so‘zning ma‘nolari taraqqiy etib boradi va natijada so‘zlar asl – real ma‘nosidan tashqari ko‘chma ma‘nolarni ham anglatib boshlaydi. Ko‘chma ma‘nolari tildagi so‘zlarning to‘g‘ri ma‘nosi negizida vujudga keladi.

Tilda ilgari mavjud bo‘lgan nomning yangi nomining hosil bo‘lishiga sabab ko‘rsatuvchi ya’ni yuzaga chiqaruvchi ma‘no ko‘chish usuli metaforadir. Metaforaning o‘rganilishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Aristotel zamonidan buyon u ritorika, falsafaning tadqiq obyekti bo‘lib kelgan bo‘lsa, hozirda psixologiya, stilistik, lingvistika, kognitiv tilshunoslikda tadqiq etilmoqda.

Lekin metafora lingvistik aspekt sifatida deyarli yaxshi o‘rganilmagan. Har

qanday badiiy vositalar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi shuning uchun ham metaforani lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish zarur.

Aristotelning "Poetika" asarida metafora tushunchasiga ta'rif berilgandan beri bu hodisaga qiziqish kuchaydi.

"Ko'chma so'z – narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turgan yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan, yoinki o'xshatilgan so'zdir"² [1;54].

1. Jinsdan turga ko'chirilgan so'zlarga "Ana mening kemam turibdi" jumlasini misol bo'la oladi. Bu yerda umuman "turibdi" so'zi "langarda turibdi" xususiyat ma'nosi anglatadi.

2. Turdan jinsga ko'chirilgan so'zlar "Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey" jumlasidagi minglab so'zi umuman "ko'plab" ning xususiy holati bo'lganligi uchun bu o'rinda ko'plab ma'nosini anglatadi.

3. Turdan turga ko'chirilgan so'zlar masalan, "Men bilan Jonni bo'shatib va suv zarrasini chachmas mis bilan kesib". Birinchi holda "bo'shalib" so'zi "kesib" ma'nosida, ikkinchi holda "kesib" so'zi "bo'shatib" ma'nosini anglatadi.

4. O'xshatilgan so'z bu yerda men ikkinchi so'z birinchisiga qanchalik aloqasi bo'lsa, to'rtinchi so'z uchinchisiga shunchalik aloqador bo'lgan holni nazarda tutaman. Shuning uchun ikkinchi so'z o'rniga to'rtinchisini yoki to'rtinchi so'z o'rniga ikkinchisini aytish mumkin goho bunga almashtirilgan so'zga aloqador bo'lgan so'z ham qo'shiladi. Masalan: Kosa Dionisga qanchalik aloqador bo'lsa qalqon Aresga shunchalik aloqador. Shuning uchun kosani Dionis qalqoni" qalqonni esa "Ares kosasi" deyish ham mumkin³.

Metaforaga bag'ishlangan so'nggi yillardagi tadqiqotlarda grammatika sohasida metaforani kuzatish imkoni mavjudligi kuzatilmoqda so'zlarning metaforik birikmasiga nazar tashlaydigan bo'lsak so'zlarning bu xil birikishini ta'minlash nafaqat semantic, balki grammatik metaforani talab qilishi. Masalan, Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dostonida "Mening gunoh haltam limmo-lim to'lgan, lekin ota hurmatini kanda qilmadim" misrada "gunoh haltam" birikmasi mavjud.

"Gunoh" so'zining na simantik va na grammatik jihatdan "xalta" so'zi bilan matnda bog'lana olmasligi aniq. Bu xil birikishni M. Teliya lug'aviy grammatik metafora orqali yuzaga chiqadi deb hisoblaydi.

*Dunyo degan shundayin anglab bo'emas sir ekan
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasrimning ekan.*

(Birinchi muhabbatim)

Metafora:

*Dunyo - tuynuksiz qasr
Qotil qo'li qilich soldi dast
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh .*

Metafora:

*Tilla bosh
Do'stlar , ko'kda yulduzlar emas
U Ulug'bek ko'zidagi yosh .*

Metafora:

*Ko'z yoshi - yulduz .
Dengiz ortib yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash'ali .*

Metafora:

*Aql mash'ali.
Besh asrlik nazmiy saroyini ,
Titratadi zanjirband bir sher
Temur tig'i yetmagan joyini ,
Qalam bilan oldi Alisher .*

Metafora: Alisher- zanjirband sher.

*Gar shul
eshitgani
m
bo'lmasa
ro'yo.*

*She'ringiz uchqur -u , o'zingiz karvon,
Manzilga shoshilmay edingiz.*

Metafora: Sovuq
simlar

Metafora: Uchqur she'r

Agar aldamasa shu sovuq simlar ,

*Oltin
O'zbekisto*

*n tuprog 'i bu kun, Bir pari faslning
og 'ushida mast.*

(O'zbekiston)

(Karvon)

(Munajatni tinglab)

Metafora: *Oltin tuproq va pari fasl*

(O'zbekistonda kuz)

*Siz-chi ey sadoqat saytidan nolib
Nadomat komida qolganlar ayting*

Metafora: *Sadoqat satri*

(Ayol)

Metafora obyektiv borliqdagi o'xshashlikning insoniy ahli bo'lishi mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir nomi narsa nomi o'rnida qo'lanilishidir" [4].

1. Metaforada ko'chishning bazasi doim ham to'la, aniq bo'lavermaydi. Masalan, "Jannatga yo'l" dostonidagi "Oh falakning yulduzlari chaqnang tobora" gapida. Falakning yulduzlari birikmasi parilar so'zi o'rnida kelyapti.

2. O'xshatish subyektiv hosil qiluvchining boshqa shaxs uchun o'xshashlikni tiklash qiyin kichadi, hatto umuman mumkin bo'lmaydi. Masalan, "Jannatga yo'l" dostonida tarozibonni "musicham" desa, insonlarning uvol va savobini yozuvchi bir insonga nomutanosib o'xshatish bo'ladi. Metafora asosini toppish qiyin.

Bunday asosda mehr yoki mazah yotganligini farqlay olmaydilar.

Demak, metafora asosida turuvchi o'xshashlik metafora tabiatiga ta'sir o'tkazadi. Shunga ko'ra metaforani o'xshatish ochiq bo'lganda tushunarli, o'xshatish yo'qolganda so'zlarsiz bo'ladi. A.Avlichevning fikricha, metafora so'zlovchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Birinchidan bir narsani nomlash, ikkinchidan nomlaganda ham nomning gapiradigan bo'lish zaruriyati".

Bu yerda nomlash atamasi ostida bir- biridan mohiyatini farq qiluvchi ikki xil hodisa nazarda tutiladi.

1. Nomsiz narsani nomlash;
2. Nomli narsaga qayta nom berish.

Nomsiz narsani nomlash zaruriyatini tushuntirib o'tishga hojat yo'q. Chunki nom inson bilimi faoliyatining eng zaruri so'zdir. Ammo ikkilamchi nomlash kelib chiqadi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir. Birinchi nutqni qisqa va lo'nda qildi. Masalan, Arosat – do'kon. Ikkinchidan nutqni aniqlashtiradi. Arosat to'lmas do'kon.

Hozirgi tilshunosligimizda metaforani lingvistik aspekt sifatida o'rganish dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotel. Poetika. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016.
2. Bikerton D. К видений в лингвистическую теорию метафорий. И теорие метафорий. – Москва: Наука, 1990.
3. Qobiljonova G. Metaforaning jismoniy lingvistik talqini. –Toshkent, 2000.
4. Avilechev A. Заметки и метафора Вест. –Москва: Филология, 1973.
5. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019.
6. Umarova, N. R. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI ABADIYDIR. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 971-973.
7. Rakhimovna, U. N. The Image of the Human Psyche in Abdulla Oripov's Poems.
8. Jurayeva, N. G., Raimjanova, N. K., Djamalutdinova, B. R., Khorunova, S. B., & Jumaeva, S. D. (2021). Creative features of non-traditional lessons in English lesson in the sphere of higher education.
9. MAMAJONOVA, N. (2025). O ‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA METAFORIK TAMG’NONING IFODALANISHI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.10), 280-282.
10. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.
11. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALARITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
12. Хужаев, М. И. (2018). АҲМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
13. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.